

### TABIAT RESURSLARIGA NISBATAN MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISHNING SHAKL VA USULLARI

Fatulloyev Dilshod Polotovich

*Tabiiy resurslar huquqi mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Kenjayev Rustam Haydarovich

*Imiy rahbar*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslar ustidan mulk huquqini huquqiy muhofaza qilish masalalari keng yoritilgan. Unda fuqarolarning atrof-muhitga nisbatan majburiyatlari, tabiat resurslaridan foydalanish tartibi va ularni asrashga doir konstitutsiyaviy, fuqarolik-huquqiy va ekologik normalar tahlil qilingan. Shuningdek, mulk huquqini sud va ma'muriy tartibda himoya qilish mexanizmlari, foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, davlat nazoratining ahamiyati bayon etilgan. Maqolada xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari tahlil qilinib, ularni O'zbekiston qonunchilik amaliyotiga moslashdirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlash bu maqolaning asosiy g'oyasini tashkil etadi.*

**Kalit so'zlar:** *tabiiy resurslar, mulk huquqi, huquqiy himoya, ekologik xavfsizlik, davlat mulkchiligi, sud nazorati, ma'muriy tartib, xorij tajribasi, qonunchilik, barqaror rivojlanish.*

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются вопросы правовой защиты права собственности на природные ресурсы в Республике Узбекистан. Проанализированы конституционные, гражданско-правовые и экологические нормы, регулирующие обязанности граждан по отношению к окружающей среде, порядок использования природных ресурсов и их охрану. Также освещены механизмы защиты права собственности в судебном и административном порядке, права и обязанности пользователей, а также значение государственного контроля в данной сфере. В статье проведен анализ передового зарубежного опыта и возможности его адаптации к законодательной практике Узбекистана. Основная идея статьи заключается в обеспечении рационального использования природных ресурсов, экологической устойчивости и согласования общественных интересов.

**Ключевые слова:** *природные ресурсы, право собственности, правовая защита, экологическая безопасность, государственная собственность, судебный контроль, административный порядок, зарубежный опыт, законодательство, устойчивое развитие.*

**Annotation:** *This article comprehensively explores the legal protection of property rights over natural resources in the Republic of Uzbekistan. It analyzes constitutional, civil, and environmental norms related to citizens' obligations toward the environment, the procedures for the use of natural resources, and their protection. The paper further examines judicial and administrative mechanisms for safeguarding property rights, the rights and responsibilities of users, and the role of state oversight. It also reviews foreign best practices and assesses the*

*potential for adapting them to Uzbekistan's legislative context. The central idea of the article is to ensure the rational use of natural resources, ecological sustainability, and the alignment of public interests.*

**Keywords:** *natural resources, property rights, legal protection, environmental safety, state ownership, judicial oversight, administrative procedure, international experience, legislation, sustainable development.*

### KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor iqtisodiy o'zgarishlar davrida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ularni asrash va kelajak avlodlar uchun saqlab qolish masalasi butun dunyo hamjamiyatining dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, O'zbekiston kabi tabiiy boyliklarga boy, biroq ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishga intilayotgan davlatlar uchun bu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiat resurslari – yer, suv, o'rmon, foydali qazilmalar, havo va boshqa ekologik tizimlar inson faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi. Shu bois ularni huquqiy jihatdan himoya qilish, xususan, mulk huquqi asosida muhofaza etish dolzarb muammolardan biridir. Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqi mazmunan faqat egalik va foydalanish imkoniyatini emas, balki bu huquqni qonuniy asosda muhofaza qilishni ham anglatadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik tizimi, xususan Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida"gi qonunlar ushbu huquqni himoya qilishning aniq mexanizmlarini belgilab bergan. Shu bilan birga, davlat, sud, prokuratura va boshqa vakolatlari organlarning aralashuvi orqali fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari kafolatlanadi.

Asosiy qism. Tabiiy resurslar ustidan mulk huquqining himoyasi, avvalo, ushbu boyliklardan oqilona va maqsadli foydalanishning huquqiy kafolati sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, xususan 50-moddada, har bir fuqaro atrof-muhitga e'tiborli va g'amxo'r munosabatda bo'lishga majbur ekani belgilangan. Bu norma, o'z navbatida, tabiat resurslaridan foydalanuvchi har bir subyekt – jismoniy yoki yuridik shaxslar zimmasiga ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, ularni asrab-avaylash kabi muhim majburiyatlarni yuklaydi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, tabiiy resurslarga nisbatan davlat mulkchiliginini saqlash va himoya qilish jarayoni, bu resurslardan foydalanayotgan subyektlarning mulk huquqini ta'minlash bilan bevosa bog'liqidir. Bunday huquqiy himoya esa, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tegishli majburiyatlarni ado etishi, davlat organlarining nazorat funksiyalarini to'laqonli amalga oshirishi, shuningdek, ekologik qonunbuzarliklarga nisbatan huquqiy javobgarlik choralarini qo'llashi orqali amalga oshadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasiga ko'ra, har bir mulkdor o'z mulkidan o'z ixtiyori bilan foydalanish, uni tasarruf etish va egallash huquqiga ega. Biroq bu huquq ekologik xavfsizlik, boshqa shaxslarning huquqlari va ijtimoiy manfaatlarga ziyon yetkazmaslik sharti bilan cheklangan. Ya'ni, tabiat resurslaridan foydalanish faqat shaxsiy manfaatlarga emas, balki jamiyatning umumiy manfaatlariiga ham mos bo'lishi zarur.

Shu asosda, tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha foydalanuvchilarga bir qator ijtimoiy va huquqiy vazifalar yuklanadi. Jumladan: atrof-muhitni asrashga doir ekologik va agrar qonunlarni keng tushuntirish, ilm-fan va texnologiya

yutuqlarini qo'llagan holda ekologik himoya tizimini takomillashtirish, sohada malakali mutaxassislarini tayyorlash, ekologik-huquqiy bilim va madaniyatni rivojlantirish, hamda tabiiy ob'ektlardan foydalanish ustidan samarali nazoratni tashkil etish shular jumlasidandir.

Tabiat resurslari ustidan mulk huquqini himoya qilish, eng avvalo, ushbu resurslardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish va huquqbazarliklarga huquqiy baho berish orqali amalga oshiriladi. Sud tartibida huquqni muhofaza qilish, ayniqsa, yer, suv, yer osti boyliklari, atmosferadagi havo, o'rmon fondi, flora va fauna ob'ektlari ustidan mulk va egalik huquqlarining buzilishi, shartnomalar va bitimlarning qonuniyligi bilan bog'liq nizolar, moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazilgan holatlar, ekologik huquq buzilishlari va jinoyatlar yuzasidan ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi ma'muriy tartibda ham muhofaza qilinadi. Bunday hollarda, vakolatli ma'muriy organlar tomonidan huquqbazar shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralar qo'llaniladi. Shu bilan birga, agar mansabdar shaxslar tomonidan chiqarilgan hujjatlar qonunga zid bo'lsa, ular yuqori turuvchi organlar tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Huquqni muhofaza qilishda tanlanadigan usul, odatda, aniq huquq sohasining normativ talablari asosida belgilanadi. Masalan, bitimlarning bekor qilinishi yoki tovon undirilishi fuqarolik-huquqiy tartibda, ekologik jinoyatlar esa jinoyat-huquqiy doirada ko'rib chiqiladi.

Umuman olganda, O'zbekistonda tabiiy resurslarga nisbatan davlat mulkchiligini huquqiy muhofaza qilish quyidagi asosiy usullar orqali amalga oshiriladi: intizomiy-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy va jinoyat-huquqiy yo'nalishlar. Har bir usulning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular huquqbazarlikning xarakteri, yetkazilgan zararning hajmi, uning oqibatlari, qonuniy talablarga zidlik darajasi va da'vo arizasida keltirilgan asoslarga qarab qo'llaniladi.

Tabiat resurslari ustidan mulk huquqini huquqiy jihatdan muhofaza qilish har bir davlatning iqtisodiy modeli, ekologik siyosati va huquqiy tizimi bilan uzviy bog'liqidir. Dunyo amaliyotida rivojlangan davlatlar tabiiy resurslardan foydalanish huquqini faqat mulk egalik doirasidagina emas, balki ularning saqlanishi, barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga olib boradilar. Bu borada ayrim xorijiy tajribalar O'zbekiston uchun ham o'rnat bo'la oladi.

Masalan, Germaniyada tabiat resurslariga egalik qilish huquqi konstitutsiyaviy jihatdan fuqarolarning manfaatlari va ekologik xavfsizlik bilan muvofiqlashtirilgan. Yer, o'rmon, suv va boshqa ekologik ob'ektlar ustidan mulk huquqi mavjud bo'lsa-da, ushbu huquqni amalga oshirish ekologik qonunlar bilan cheklanadi. Germaniyada ekologik jinoyatlar sud orqali emas, avval ekologik inspeksiylar tomonidan ma'muriy tartibda ko'rib chiqiladi va tegishli javobgarlik belgilanadi. Keyinchalik esa fuqarolik sudlari orqali zarar qoplatish mexanizmlari ishga tushiriladi.

AQSh tajribasida esa, tabiiy resurslar ustidan mulk huquqi xususiy sektor foydasiga keng qo'llaniladi. Biroq bunda davlatning nazorat mexanizmlari juda kuchli. Xususan, federal va shtat darajasidagi ekologik agentliklar har bir bitim, foydalanish shartnomasi va egallik holatlarini monitoring qiladi. AQShda atrof-muhitga zarar yetkazgan har qanday xususiy yoki yuridik shaxs katta miqdordagi jarimalar bilan jazolanadi. Shuningdek, tabiat resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlari uchun jinoyat kodeksida alohida bandlar mavjud.

Yaponiyada esa, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi bilan bir qatorda ekologik etikaga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu davlatda yer, suv yoki o'rmon ustidan egalik faqat ekologik xavfsizlikka mos tarzda amalga oshiriladi. Har qanday ekologik zarar yetkazish nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy javobgarlik bilan ham baholanadi. Tabiatni muhofaza qilish mabtagacha ta'lidan boshlab o'rgatiladi va bu orqali jamiyatda ekologik mas'uliyat darajasi yuqori bo'ladi. Sud orqali muhofaza qilishdan oldin, odatda nizolar muqobil vositalar orqali, ya'ni ekologik vositachilik yoki nizolarni hal qilish markazlari orqali bartaraf etiladi.

Shvetsiya tajribasida esa, davlat mulkchiliga mansub tabiiy resurslar ustidan fuqarolar keng jamoatchilik nazorati vositalari bilan ishtirok etadi. Ular uchun maxsus onlayn platformalar, ekologik monitoring tizimlari va fuqaroviylar hisobotlar joriy etilgan. Har qanday noqonuniy faoliyat haqida fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri maxsus eko-prokuratura idoralariga murojaat qilishi mumkin.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, tabiat resurslari ustidan mulk huquqini muhofaza qilish birgina sud yoki ma'muriy vositalar bilan emas, balki ijtimoiy, madaniy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar uyg'unligida amalga oshirilishi kerak. O'zbekiston bu borada xorijiy davlatlarning ilg'or amaliyotlarini o'rganib, o'z milliy qonunchiligi va siyosatiga mos holda tadbiq etishi orqali resurslardan foydalanishda adolat, shaffoflik va barqarorlikni ta'minlay oladi.

Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqini huquqiy himoya qilish har bir davlatda mavjud bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va ekologik boshqaruvi tizimlari bilan bevosita bog'liqdir. Dunyodagi ilg'or amaliyotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tabiiy resurslarga egalik qilish huquqi faqat mulkdorlik doirasida emas, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlab qolish tamoyillari bilan uyg'un holda amalga oshiriladi.

Ba'zi mamlakatlarda tabiiy resurslarga bo'lgan mulk huquqi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan bo'lsa-da, bu huquq ekologik qonunchilik bilan chegaralangan. Ekologik huququzarliklar avval ma'muriy tartibda ko'rib chiqiladi, zarurat tug'ilganda esa fuqarolik sudlari orqali moddiy zarar qoplatish chorasi ko'riladi. Bunday ikki bosqichli yondashuv resurslardan foydalanishdagi intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Boshqa tajribalarda esa resurslarga xususiy mulk shaklida egalik qilish amaliyoti keng tarqalgan. Shu bilan birga, davlat nazorati va monitoring tizimi kuchli shakllantirilgan bo'lib, har bir bitim, egalik yoki foydalanish jarayoni qat'iy nazorat ostida bo'ladi.

Atrof-muhitga zarar yetkazgan har qanday subyektga nisbatan jiddiy jazolar belgilangan. Bu holat mulk huquqini mas'uliyat bilan uyg'unlashtirishning amaliy ifodasıdır.

Yana ayrim yondashuvlarda ekologik etikaga alohida urg'u beriladi.

Bu davlatlarda fuqarolar tabiiy resurslardan foydalanish mas'uliyatini ijtimoiy va huquqiy javobgarlik doirasida qabul qiladilar. Ekologik nizolar, odatda, sudgacha bo'lgan muqobil vositalar orqali hal qilinadi.

Bunday yondashuvlar jamiyatda ekologik ong va huquqiy madaniyat darajasining yuqoriligidan dalolat beradi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining huquqiy muhofazasi nafaqat resurslardan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash, balki ekologik barqarorlik va jamiyat manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasidir.

Konstitutsiyaviy normalar va sohaviy qonunlar asosida jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquq va majburiyatlari aniq belgilangan bo'lib, bu resurslardan foydalanishda mas'uliyatli yondashuvni talab etadi.

Tabiat resurslari ustidan davlat mulkchiligin saqlash, ulardan foydalanish tartiblarini huquqiy jihatdan tartibga solish orqali nafaqat tabiat ob'ektlarini himoya qilish, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga erishiladi.

Bu borada nazorat organlari faoliyati, sud va ma'muriy tartibda ko'rilib yotgan huquqbazarlik holatlariga nisbatan choralar – hammasi birgalikda samarali huquqiy mexanizmni shakllantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023. 48 b.
9. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. - T.: Adolat, 2014. -496 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi", 2022 yil 1 fevral.
11. Ekologiya huquqi: Darslik / J.T. Xolmo'minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov, O.J. Xolmuminov. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. -235 b.
12. Ikramov R.A., Kandov B.M. The Role of Ecological Values in the Private Pyerspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). 2022. - pp. 68-73.
13. <https://www.env.go.jp/en>
14. <https://www.ecolex.org/>